



TABIIY FANLARNI O'QITISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Buronova Mahliyo G'ulomovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri

12-maktabning kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarini darsga jalb etish va zamonaviy darslarni tashkil etish to'g'risida gapirilgan. Shu jarayonda zamonaviy darslarga qo'yiladigan talablar, dars tashkil etishdagi mantiqiylik va izchillik usullari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qitish, dars, talab, mahorat, zamonaviy dars turlari.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz", degan edi.



O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (komyuter, proyektor, electron doska vahokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – o'quvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida o'quvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash



o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Masalan "Fikriy hujum" metodi.

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Yoki bo'lmasa beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi,...) ortiqcha metodi

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;



- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'likni asoslashlarini talab etish lozim).

Bu metodlar mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidasigi mantiqiy bog'likni ko'rsatish va asoslay olish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslash, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Zamonaviy dars – bu aynan o'quvchilarning bilish darajasi rivojlanib, ularni atrofdagi haqiqatni faol ravishda idrok etishga, sabab- ta'sir munosabatlarini tushinishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o'lchovli bo'lishi kerak. Maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsning yangi ta'lim maqsadlariga o'quvchilar o'zlari tomonidan tuziladigan va shaxsan o'zi uchun muhimligini anglaydigan maqsadlar kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, zamonaviy dunyo endi odamlarni bilganlari uchun emas, balki bilganlari bilan nima qila olishlari uchun mukofotlaydi. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyatni rivojlanishi esa ta'lim- tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Shu bois mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish,



milliy ta'lim- tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish yoshlarning zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarishga kata ahamiyat berib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh. Mirziyoyevning 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. Qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
5. www.ziyonet.uz